



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 268 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlolova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinov	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	113
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvaxon Xamidbek qizi	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
Quronova Ismigul Xolmurod qizi	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	126
Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari	139
Shukurova Sevara Ilhomovna	
Improving High Jump Techniques	143
Tajimbetov Anvar Tengeldayevich	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari	146
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников	149
Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari	157
Abduvaxobova Nodira	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari	160
Ismailova Nozima Umaraliyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matn tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati	164
Utanbayeva Dildora Abdixadirovna	
Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish	168
Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li	
Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari	171
To'raqulov Akbar Rustam o'g'li	
Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida	175
Temirova Muyassar Abdulkarim qizi	
O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish	180
Raximova Surayyo Otabek qizi	
Yoshlarni kasb tanlashda ruhiy tayyorgarlik va shaxsiy qobiliyatlarni baholash	183
Biysenov Temirbek Taumuratovich	
Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning ahamiyati	188
Choriyeva Surayyo Choriyevna	
Differences Between Computer-Based and Paper-Based Assessment in Inclusive Education	192
Davidova Sayyora Sirojiddin kizi	
Raqamli muhit sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining pedagogik modeli va tajriba-sinov natijalari	196
Donayeva Nozimaxon Norbo'tayevna	
Intellekt xarita yordamida o'quvchilarda "emotsional intellekt"ni rivojlantirish	201
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda o'yin faoliyatining psixologik-pedagogik ahamiyati	206
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarishning nazariy asoslari	210
Mannanova Nargiza Xaydarovna	

Ingliz tilini o'rgatishda ona tilidan keng foydalanishning salbiy va ijobiy jihatlari	215
<i>Masharipova Kumushoy Amin qizi</i>	
The Relationship Between Critical Thinking and Reading Comprehension in Primary School Students	218
<i>Mavlonova Dildora Shukhrat kizi</i>	
Tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy metodlardan foydalanish	222
<i>N. K. Musayeva, U. O. Ziyatova</i>	
Singapurning ta'lim falsafasi: korporativ madaniyatni ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish bilan integratsiyalash ...	226
<i>Nishonov Xayrulla Xolmirzaevich</i>	
The Anthropocentric Paradigm in Modern Linguistics: Cognitive Linguistics and Linguacultural Studies in The Study of Language, Consciousness, and Culture	230
<i>Rajabova Shaxlo Shodmonovna</i>	
Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirishda nostandart yondashuvning ahamiyati	234
<i>Ramazonova Salomat Saidovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash	238
<i>Saidova Gulruh Halim qizi</i>	
O'zbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlarini tashxis qilishning psixologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida)	242
<i>Turg'unboeva Azizaxon G'ulomovna</i>	
Сущность и специфика развития билингвизма у детей дошкольников	246
<i>Истамова Нигора Азимжановна</i>	
Zamonaviy rahbarning innovatsion boshqarish texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari	249
<i>Xakimova Dildora Mashrabjonovna</i>	
Креативный подход к развитию лингвометодического мышления студентов-филологов	253
<i>Ходжаниязова Айгуль Айтмуратовна</i>	
Umumta'lim maktablarida tarbiya darslarini tashkil etish ijtimoiy zarurat sifatida	257
<i>Rashidova Gulnoza G'ulomovna</i>	
Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati	261
<i>Xaydarov Sulaymon Amirqulovich</i>	
Xronotop nazariyasiga tahliliy yondoshuvlar va qarashlar	265
<i>Avazov Vahabjon Tolibjon o'g'li</i>	



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH IJTIMOY ZARURAT SIFATIDA

Rashidova Gulnoza G'ulomovna

O'zMU Jizzax filiali psixologiya kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida tarbiya darslarini tashkil etishning dolzarbligi va ijtimoiy zarurati yoritilgan. Tarbiya darslari o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, milliy va umuminsoniy fazilatlarni singdirish hamda jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini egallashlariga yordam beruvchi muhim omil sifatida talqin qilinadi. Muallif ta'lim jarayonida tarbiya ishlarini samarali tashkil etish, pedagogik texnologiyalarni qo'llash, shuningdek, oila, maktab va jamiyat hamkorligini kuchaytirish zarurligini asoslab beradi. Shuningdek, tarbiya darslarining o'quvchilarning shaxs sifatida kamol topishi, ijtimoiy moslashuvi va barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, fazilat, axloq, ijtimoiy, qadriyat, intellektual, didaktik, tamoyil, moddiy-ma'naviy, dunyoqarash.

Abstract: This article highlights the relevance and social necessity of organizing moral education lessons in secondary schools. Such lessons are interpreted as a key factor in fostering students' spiritual and moral values, instilling national and universal virtues, and helping them develop an active civic position in society. The author substantiates the importance of effectively organizing moral education activities within the educational process, applying modern pedagogical technologies, and strengthening cooperation between families, schools, and society. Moreover, the article emphasizes the role of moral education lessons in students' personal development, social adaptation, and the upbringing of a well-rounded younger generation.

Key words: education, upbringing, virtue, morality, social, value, intellectual, didactic, principle, material-spiritual, worldview.

Аннотация: В статье раскрывается актуальность и социальная необходимость организации воспитательных занятий в общеобразовательных школах. Воспитательные уроки рассматриваются как важный фактор формирования у учащихся духовно-нравственных ценностей, приобщения к национальным и общечеловеческим добродетелям, а также содействия их активной гражданской позиции в обществе. Автор обосновывает необходимость эффективной организации воспитательной работы в образовательном процессе, применения педагогических технологий и укрепления сотрудничества семьи, школы и общества. Кроме того, подчеркивается роль воспитательных уроков в становлении личности учащихся, их социальной адаптации и воспитании гармонично развитого поколения.

Ключевые слова: образование, воспитание, добродетель, нравственность, социальный, ценность, интеллектуальный, дидактический, принцип, материально-духовный, мировоззрение.

KIRISH

Tarbiya – bu muayyan jismoniy, aqliy, ma'naviy va axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon bo'lib, uning davomida shaxsning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlar, axloqiy qarashlar shakllantiriladi. Tarbiya insonning ham, jamiyatning ham mavjudligini ta'minlaydigan eng qadimiy va azaliy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiyasiz shaxs ham, ijtimoiy jamiyat ham mavjud bo'la olmaydi.

Shaxs tarbiyasi, axloqiy qarashlar va jamiyat tomonidan o'rnatilgan normalar ta'lim jarayonida tushuntiriladi. Chunki shaxs va jamiyat mavjudligini ta'minlovchi qadriyatlar ta'lim-tarbiya orqali avloddan-avlodga o'tadi.

Pedagogik adabiyotlarda tarbiya atamasi turli ma'nolarda qo'llanadi:

- **Keng ma'noda,** tarbiya shaxsni shakllantirishga qaratilgan barcha ta'sirlar va harakatlarni o'z ichiga oladi. U insonlarning ijtimoiy, madaniy va intellektual hayotda faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Shu sababli tarbiya nafaqat oila, maktab yoki yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarni, balki butun ijtimoiy tizimni, uning yetakchi maqsadlari va ta'limning barcha bosqichlarini qamrab oladi.



- **Tor ma'noda**, tarbiya shaxsning jismoniy, intellektual, axloqiy va estetik qarashlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni anglatadi.

Shu boisdan tarbiyaviy ishlar oilalarda, ta'lim muassasalarida va jamoat tashkilotlarida tizimli ravishda amalga oshiriladi.

Tarbiya va ta'limning uzviy bog'liqligi

Tarbiya o'qitish jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonida nafaqat bilim beriladi, balki odob, axloqiy sifatlar va insoniy fazilatlar ham shakllantiriladi. Tarbiya har bir jamiyatda, har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yosh avlod ta'limi va tarbiyasiga birdek e'tibor bermagan xalq taraqqiyotdan ortda qoladi va turg'unlikka moyil bo'ladi.

Tarbiya nazariyasi va yangi Tarbiya fani

Tarbiya nazariyasi quyidagilar bilan belgilanadi:

- tarbiya tamoyillari;
- tarbiyaviy didaktika;
- o'quv amaliyoti.

Ushbu masalalar O'zbekistonda ta'lim nazariyasining tamal toshi sifatida shakllantirilgan yangi Tarbiya fanining asosini tashkil etadi.

Tarbiya jarayonining jamiyatdagi o'rni, ahamiyati va amaliyoti ko'plab pedagogik qarashlar va tajribalar bilan bog'liq bo'lib, uning mazmunini to'liq anglash uchun pedagoglar nazariy bilimlar, kasbiy mahorat va amaliy malakalar bilan qurollanishi lozim.

Bo'lajak pedagoglar uchun zamonaviy yondashuvlar

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy jihatdan tayyorlashda yangi Tarbiya fanidan maqsadli bilim berish, ularni ilg'or uslub va texnologiyalar bilan qurollantirish dolzarb ahamiyatga ega. Shu boisdan yangi turdagi elektron modulli darslik materiallarini yaratish va ulardan ta'lim jarayonida keng foydalanish tavsiya etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2020-yildan boshlab o'zbek pedagogikasi tarixida ilk bor yangi tarbiya fani joriy etildi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tarbiya fanini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son qarori tasdiqlandi.

Tarbiya fanining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- a) milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi;
- b) vatanparvarlik ruhini tarbiyalash;
- d) ta'lim sohasidagi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarga tayanish;
- e) ochiqlik va shaffoflik;
- f) ta'lim sohasidagi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish.

Tarbiya fani o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, muammolarga qarshi kurashish va ularni bartaraf eta oladigan shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Tarbiya fanining samaradorligi bir qator subyektiv va obyektiv omillar hamda ta'lim sharoitlarining muvofiq-ligiga bog'liq. Tarbiya subyektlarida insoniy fazilatlar va axloqiy qarashlarni shakllantirish, ularda mas'uliyat hissini uyg'otish, shaxsning o'z-o'zini tarbiyalashga undash hamda o'z xatti-harakatlari uchun javobgar ekan-ligini tushuntirish samarali ta'limning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'lim va tarbiyaning birligi pedagogik jarayonning asosiy tamoyillaridan biridir. Ta'lim va tarbiya uzviyligi hamda uzluksizligi aksioma sifatida qabul qilingan. Bu ikki jarayon bir xil turdagi munosabatlar bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi va rivojlantiradi. O'qitish mazmuni asosida o'quvchilar tarbiyalanadi, ta'lim jarayonining sifati esa o'rganuvchi shaxsning psixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va insoniy fazilatlar majmuasi bilan belgi-lanadi.



Ta'lim va tarbiya jarayonlarini farqlashdan ko'ra, ta'limdan tarbiyaga tamoyili asosida o'qitish ijobiy natija beradi. Ta'lim jarayonida tarbiya harakatga keltiruvchi va rivojlantiruvchi funksiyani bajaradi. Ta'lim berishda tarbiya asosiy poydevor hisoblanadi. Tarbiya berilmasdan, xulq-atvor normalari, axloqiy qarashlar, insoniy fazilatlar, shaxsiy qadriyatlar, intizom va mas'uliyat hissi shakllantirilmasdan turib, muvaffaqiyatli ta'lim muhitini yaratib bo'lmaydi.

Bu holat tarbiya jarayonining murakkabligi, ko'p qirraliligi hamda tarbiyaviy ta'limning asosiy tushunchalaridan kelib chiqadigan qonuniyatlar trayektoriyasining kengligini ko'rsatadi. Tarbiya nazariyasi va amaliyoti doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Shu munosabat bilan ta'lim-tarbiya jarayonida shaxs haqidagi pedagogik bilimlarning ochiqligi, globallashuv va axborot almashinuvi cheksizligi tarbiya mazmunining yangi qirralarining paydo bo'lishi, ma'lum qonuniyatlar asosida yangi ta'lim an'alarining shakllanishi bilan bog'liq.

Bo'lajak pedagoglar uchun zarur tamoyillar

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga tarbiya faniga oid tamoyillarni chuqur o'zlashtirish tavsiya etiladi. Ular oliy pedagogik ta'lim jarayonida tarbiya tamoyillarini o'quv faoliyati va mustaqil ta'lim tadqiqotlarida qo'llash ko'nikmasini shakllantirish hamda kasbiy faoliyatda amaliy qo'llash kompetensiyasini egallashi lozim.

Buning uchun pedagogik amaliyot jarayonida:

- har bir o'quvchining individual faoliyat bilan shug'ullanishi,
- o'qituvchilar bilan hamkorlikda faol ish olib borishi,
- ta'lim-tarbiya tamoyillarining amaliy samaradorligini o'rganish imkoniyati yaratilishi kerak.

Talabalar oliy ta'lim muassasalari imkoniyatlaridan, o'quv jarayoni sharoitlaridan hamda faoliyatning amaliy samaradorligidan oqilona foydalanishi zarur. Tarbiya fanining maqsadi, tamoyillari va asoslarini har bir talaba tomonidan chuqur o'zlashtirish kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi hisoblanadi.

Tarbiya fanining zamonaviy talablari

O'zbekiston ta'lim tizimida, xususan, oliy ta'lim jarayonida tarbiya fanining asoslarini o'qitish va o'rganish zamon talablaridan kelib chiqib moslashtirilishi zarur. Shu munosabat bilan boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiya fani bilan tanishtirish va uni o'qitish metodikasini o'rganish quyidagi talablar bilan belgilanadi:

- fan asoslarini chuqur tushunish;
- fanni o'qitishda ilg'or va zamonaviy pedagogik ko'nikmalarni egallash;
- innovatsion va axborot texnologiyalarini bilish;
- tarbiya masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni o'rganish;
- tarbiyaning inson va jamiyat hayotidagi o'rnini to'liq anglash;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini fan bo'yicha o'qitish usullari va texnologiyalarini bilish;
- fanni o'qitishda individual pedagogik tajribaga ega bo'lish.

Tarbiya fanini o'rganish zaruriyati boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan ilmiy, uslubiy va amaliy talablar nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Chunki tarbiya fani gumanitar fanlar qatorida ta'lim jarayonini tashkil etadi, amalga oshiradi va samaradorligini ta'minlaydi. Tarbiya fanining o'quv jarayoni boshlang'ich ta'limda umumta'lim fanlarini o'qitish jarayonida integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida boshlang'ich sinf pedagoglari uchun tarbiya fanini o'qitish metodikasi bo'yicha nazariy va amaliy kompetensiyalarni egallashga ustuvor ahamiyat berish zarur. Bino-barin, tarbiya fanini o'qitish metodikasi bo'yicha shakllantiriladigan nazariy bilim, didaktik ko'nikma va amaliy malakalar oliy ta'lim tizimida pedagogik ta'limni amalga oshirish jarayonida shakllantiriladi.

Kelgusida ushbu fanni ishlab chiqish natijalari asosida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida ta'limdan tarbiyaga tamoyili asosida o'quv jarayonini tashkil etish juda dolzarb masalalardan biridir.

Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida tarbiya fani doirasida quyidagi kompetensiyalarni egallash talab etiladi:

- a) fan asoslari bo'yicha nazariy va kasbiy bilimlarga ega bo'lish;
- b) fanni o'qitish metodikasi ko'nikmalariga ega bo'lish;
- d) o'quvchilarga fan bo'yicha bilim berish kompetensiyasini shakllantirish.



Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida ushbu masalalarga ustuvor ahamiyat qaratiladi.

O'quvchilar ta'limining boshlang'ich bosqichida tarbiya muhim pedagogik masala bo'lib, bunda o'qituvchi zamonaviy talablarni hisobga olishi lozim. Shu munosabat bilan, yuqorida ta'kidlanganidek, tarbiya fanini o'qitishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- o'quvchilarning xulq-atvori, bilim, ko'nikma va malakalari bo'yicha har tomonlama rivojlanishiga erishish;
- davlat ta'lim standartlari talablari asosida kompetensiyalarni rivojlantirish;
- o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni tarbiyalash;
- ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;
- umumta'lim fanlarini o'qitishning prinsipial yangi metodologiyasi asosida tarbiyaning yaxlitligi va izchilligini ta'minlash.

Tarbiya fanining ilmiy-tadqiqot metodlari jarayonida kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu usullar pedagogika fanining metodlaridan olingan bo'lsa-da, tarbiya fani doirasida kengroq ma'noda idrok qilinadi. Buning sababi, tarbiya jarayonining o'ziga xos tabiati buni taqozo qiladi.

Milliy ta'lim tizimida tashkil etilgan tarbiya fanining fundamental ilmiy-tadqiqot usullariga quyidagilar kiradi:

- ta'limga oid pedagogik merosni o'rganish;
- jahon xalqlarining pedagogik tajribalarini tahlil qilish;
- yosh avlodda ma'naviy immunitetni shakllantirish usullarini aniqlash;
- raqamlashuv va globallashtirish davrida shaxsiy qadriyatlar va insoniy fazilatlarini shakllantirish vositalarini aniqlash.

Ushbu ilmiy-tadqiqot usullari ta'lim jarayonini o'rganish, manbalarni tahlil qilish va tajribalarni o'tkazish natijasida aniqlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizning ta'lim siyosatida milliy o'zlikni targ'ib qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish orqali shaxs va jamiyat o'rtasida uyg'unlikni o'rnatish, ehtiyojlarni qondirishda yakkalikdan umumiylikka yo'naltirish, shaxsning qobiliyatlari, iste'dodi va ichki imkoniyatlarini o'rganish hamda rivojlantirishni taqozo etadi. Yosh avlodning shaxs va subyekt sifatida shakllanishi, intellektual rivojlanishi, umumiy va oliy ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga tarbiya bermasdan turib erishib bo'lmaydi.

Jamiyatda guruhlararo munosabatlarda demokratik tamoyillarning qabul qilinishi, fuqarolar o'rtasida teng huquqlilik, subyektivlik, hamkorlik va hamdardlik kabi turmush tarziga o'tish insoniyat sivilizatsiyasining global ijtimoiy-tarixiy muvaffaqiyatining yorqin ifodasidir.

Hozirgi davrda shaxsning rivojlanishida moddiy-ma'naviy poydevor yaratish, shaxsiy dunyoqarashni shakllantirishda (ham ilmiy, ham diniy), mustahkam e'tiqod uchun imkoniyatlar kengaytirildi. Ijtimoiy tajriba, voqea-hodisalar, ijtimoiy tushuncha va ehtiyojlarni o'zlashtirish, barcha islohotlarni shaxs rivoji uchun safarbar etish, inson kapitalini taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuch sifatida baholash kabi umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy jarayonlar amalga oshirilmoqda. Abdulla Avloniy o'z davrida ta'kidlaganidek: "Agar pedagogika insonni har tomonlama tarbiyalamoqchi bo'lsa, insonni har tomonlama o'rganishi zarurdir."

Foydalingan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 06.07.2020 yildagi 422-son qarori Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun.-Toshkent, 2020 y
3. Muhammadjon Quronov "Bolam baxtli bo'lsin desangiz"
4. Family Studies. 2019. 25(2), -P.211-225.
5. Yunusmetova N.S. (2024). Umumta'lim maktablarida tarbiya darslarini samarali tashkil etish usullari.
6. Julmatova S.J. (2023). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish tartibi, shakli va mazmuni.
7. Raxmonov N. Pedagogik psixologiya asoslari. -Toshkent: Universitet, 2014
8. Karimova V.M. va boshk. Mustaqil fikrlash. - T.: SHark.-2000.- 112 b.
9. Karimova V.M., Sunnatova R. "Mustaqil fikrlash" o'quv qo'llanmasi bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish uslubiyoti.-T.: SHark, 2000.- 16 b.
10. Mayers D. Sotsialnaya psixologiya perev. S angl.-SPb.: "Piter",1999
11. Rashidova, G., & Choriyorova, S. (2024). Iroda nazariyalari Is Vigotskiyning iroda rivojlanishiga qo'shgan hissasi. International Journal of scientific and Applied Research, 1(3), 291-295.
12. Gulomovna, R. G. (2024). Scientific and theoretical aspects of psychology of creativity and talent. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(02), 147-151.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.